

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17014063>

## KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

*Salayev Jasurbek Komilovich*

Xorazm viloyati Pedagogik mahorat markazi direktori,  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.

**Annotatsiya.** Maqolada kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash uslubiyati tahlil qilinib, mavjud yondashuvlarning afzalliklari va kamchiliklari ko'rsatib berilgan. Moliyaviy natijadorlik, ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsion faollik va ijtimoiy ta'sir kabi mezonlarga asoslangan usullar chuqur o'rganilgan. Tadqiqotda kichik biznes faoliyatini kompleks baholashga imkon beruvchi takomillashtirilgan uslubiyat taklif etilgan bo'lib, uning amaliy ahamiyati hududiy rivojlanish sharoitida asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, tadbirkorlik, samaradorlik, baholash uslubiyati, iqtisodiy ko'rsatkichlar, innovatsion rivojlanish.

### KIRISH

Kichik biznes va tadbirkorlik zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim drayverlaridan biri bo'lib, barqaror o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rirlari yaratish hamda aholining turmush darajasini oshirishda bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kichik biznesning faoliyati nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki innovatsion tashabbuslarni kengaytiradi, hududiy iqtisodiy muvozanatni mustahkamlaydi va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga xizmat qiladi. Shu sababli kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash uslubiyatini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirildi. Soliq imtiyozlari, kreditlash mexanizmlari, davlat grantlari va boshqa rag'batlantiruvchi choralarining joriy etilishi kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi ulushini sezilarli darajada kengaytirdi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham kichik biznesni rivojlanterish, uning samaradorligini oshirish va xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Shunga qaramay, mavjud amaliyotda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash usullari ko'proq moliyaviy ko'rsatkichlarga asoslanib kelmoqda. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsion faollik va ijtimoiy ta'sir kabi muhim mezonlarni yetarli darajada hisobga olmaydi. Shu bois, samaradorlikni kompleks yondashuv asosida, ko'p mezonli tahlil usullari yordamida baholash zaruriyati yuzaga kelmoqda.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Klassik iqtisodchilar A. Smit va D. Rikardo tadbirkorlik tashabbusining iqtisodiy o'sishga qo'shadigan hissasini asoslab, bozor erkinligi va resurslardan samarali foydalanish orqali jamiyat farovonligini ta'minlash g'oyasini ilgari surgan [1]. J.M.

Keyns esa kichik biznesning faoliyat samaradorligini oshirishda davlatning tartibga soluvchi va qo'llab-quvvatlovchi rolini alohida ta'kidlagan [2].

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda samaradorlik tushunchasi ko'p qirrali yondashuvda talqin qilinadi. M. Porter raqobatbardoshlik nazariyasida korxonalar samaradorligini nafaqat moliyaviy natijalar, balki innovatsion faoliyat, tarmoqdagi o'rni va klasterlashuvdag'i faolligi bilan o'lchash mumkinligini ko'rsatgan. Shuningdek, P. Druker tadbirkorlik samaradorligini strategik boshqaruvin, resurslardan oqilona foydalanish va innovatsion qarorlarni joriy etish bilan bog'lagan [3].

Samardorlik har qanday faoliyatni asosiy mezoni hisoblanadi. Hozirgi zamon iqtisodiy adabiyotlarida, metodik ko'rsatma tavsiyanomalarda samaradorlikni baholash uni hisob-kitob usullari ko'plab ko'rsatilgan. Ammo shunga qaramasdan, mavjud usullarni o'rganish, ularni tahlil qilish, yangi kashf bo'layotgan ko'rsatkichlarni hisobga olish hozirgi davrning talabi. Masalan, qo'shilgan qiymat, ishni ixtisosliklardan foydalanib, yangi yaratilgan materiallarni hisobga olish, klassterlash va boshqalar.

Bunday o'zgarishlarni kichik biznes faoliyatlarida e'tiborga olish uning samaradorligini taa'minlashda amaliy yordam beradi. Shu munosabat bilan kichik biznes korxonalarining samaradorligini baholashni takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Iqtisodiyot nazariyasidan ma'lumki, jamiyatdagi har qanday faoliyat pirovard natijada o'z samadorligini ko'rsatishi lozim.

Samaradorlikning ilmiy konsepsiyasida umumiy tushunchasini daromadning xarajatga bo'lган nisbati bilan ifodalanadi. Demak, jamiyatda kichik biznes faoliyatiga sarflanayotgan bir birlik so'm qancha foyda kelishtirishi mumkin, bundan kelib chiqqan holda foyda bilan samaradorlik o'rtasida bevosta bog'liklik mavjud. Ammo har doim nazariya amaliyotga to'g'ri kelavermaydi. Chunki korxona foyda olishi mumkin, lekin samaradorlikni ta'minlay olmasligi mumkin. Bunga sabab turli ta'sirlar bo'lishi mumkin, ham ichki, ham tashqi [4].

Samaradorlikning ko'lami ishlab chiqarish ko'lamiga ham bog'liq. Shu sababli ishlab chiqarish kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga samaradorlikni universal tushuntirib berish ancha murakkab holat. Chunki bu mezon va ko'rsatkich ularga ham aloqador. Masalan, katta korxonalarda samaradorlikni aniqlash uchun ko'rsatkichlar bir nechta guruhlarga bo'linadi [5]. Ammo shunga qaramasdan, biz kichik biznes subyektlarining samaradorligi tushunchasiga o'z ifodamizni berishga harakat qildik. Ya'ni kichik biznes subyektlari samaradorligi, ularning maxsus ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lган har bir so'mga daromad keltiruvchi jarayondir. Kichik biznesning imkoniyatlari va o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ushbu tushuncha to'g'ri bo'lsa kerak deb o'ylaymiz. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining samadorligini aniqlashda, uni baholash ko'rsatkichlarini to'g'ri tanlash muhim vazifadir. Chunki yuqorida aytib o'tilganidek, kichik korxonalarining faoliyatini baholovchi ko'rsatkichlar ko'p emas. Shu sababli bunda ba'zi bir qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin. Ushbu masalani yengillashtirish uchun kichik biznes subyektlarining samaradorligini baholashda ko'rsatkichlarni ikki guruhga bo'lish mumkin, ya'ni miqdor va sifat ko'rsatkichlari [6].

Miqdor ko'rsatkichlari sifatlilik va amaldagi ma'lumotlar asosida hisoblanadi. Sifat baholash esa, miqdor baholashni qo'llab bo'lmaydigan hollarda foydalaniladi. Sifat baholashning ekspert tahlil usuli sifatida hisoblashadi.

Samaradorlik nazariyada kichik biznesni baholashda, uni bir butun kompleks ma'nosida qaraladi, bunda mulkiy munosabatlar yoki boshqaruv qarorlari asosida amalga oshiriladi [7].

Kichik biznesni xo'jalik yuritish obyekt sifatida qaralganda, avvalambor, uning hayotiy siklini e'tiborga olgan holda, ayrim hollarda alohida biznes jarayonlarining samaradorligini baholash yo'li bilan ham hisoblash mumkinligini qabul kilgan. Bunda quyidagi fazalar e'tiborli hisoblanadi: yaratilish, o'sish, yetuklik, so'nish. Bunday yondashuv iqtisodiy adabiyotlarda faqat kichik korxonalarining samaradorligini baholash uchun o'rnatilgan va tavsija qilingan [8].

Ammo kichik korxonalarining samaradorligini baholash usullari tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan va o'ziga xos usullar yaratilgan. Biz ham ishimizda ma'lum darajada o'z usulimizni ishlab chiqish va boshqa majburiyatlarni takomillashtirishga hissamizni qo'shishga harakat qildik [9].

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini baholash, avvalambor, uning mezonlari va ko'rsatkichlarini to'g'ri tanlashga bog'liqdir. Chunki bunda har bir ko'rsatkichning o'z koeffitsiyentlari, ularning korreksiya va diskontlashga moyilligi bilan ajralib to'radi. Masalan, bulardan biri rentabellik ko'rsatkichi hisoblanadi. Buning asosiy mohiyatini ochib berishda uning keng miqyosdagi koeffitsiyentlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu munosabat bilan rentabellik samaradorlikni baholashda reallik tushunchasi bilan ajralib turadi. AQSHda bir yilda norentabel holatiga tushgan qichik korxonalarining 1 millionga yaqini o'z faoliyatini to'xtatdi. Ammo kichik biznes nazariyasi jixatdan ushbu yo'naliш ya'ni mezon va ko'rsatkichlar tizimini yaratish metodlarini takomillashtirish uchun aniq jihat bo'ladi. Bu borada ham ko'p tadqiqotlar olib borilgan [11].

Mualliflar A.F.Ionov, N.N.Semenovalar samaradorlik dinamikasining tavsiflash uchun qo'yidagi ko'rsatkichlar tizimini taklif qilishgan [12].

Material sig'imi har bir mahsulotga sarflanayotgan ko'p hollarda materiallik yoki bir biriga to'g'ri keladigan mahsulot, mehnat sig'imi, mehnat sarfi yoki ish vaqtini ishlab chiqarish hajmiga nisbati, amortizatsiya sig'imi – amortizatsiya hisobga olingan mablag'larni sotishdan tushgan asosiy va aylanma aktivlar summasiga nisbati [13].

Ushbu mualliflarning fikricha, korxonaning iqtisodiy samaradorligini nisbiy ko'rsatkichlar bilan tavsiflanib, rentabellik yoki foya (daromad) ko'rsatkichlar tizimini shakllantiradi [14].

I.A.Yasovskayaning fikriga ko'ra, kichik korxona samaradorligini rentabellik ko'rsatkichi bilan ifodalanishi mumkin. Bunda u quyidagi koeffitsiyentlar tizimini taklif etgan: iqtisodiy rentabellik koeffitsiyenti – sof foydani aktivlar qiymatiga nisbati; moliyaviy rentabellik koeffitsiyenti – sof foydani o'zining kapitali qiymatiga nisbati; iqtisodiy rentabellik koeffitsiyenti – sof foydali soliq to'langandan keyingi tushumdan daromadga nisbati; tashqi aylanma aktivlar rentabelligi. S.G.Mesheryakov kichik biznes faoliyati samaradorligining kengroq umumiyl konsepsiyasini ko'rib chiqqan [15]. U iqtisodiyotni samara va avanslashgan harakatlar yoki iqtisodiy samara va joriy

harakatlarning nisbatini anglatadi. Aniqroq kilib aytganda, bunda joriy ish vaqtি yoki materiallarni umumiylar xarajatlari olinadi.

Kichik korxonaning umumiylar iqtisodiy samaradorligini aniqlashda resurs ko'rsatkichi oshadi. Bunday vaziyat kichik korxonaning umumiylar rentabelligini ko'rsatishi mumkin. E.Xelferi nuqtayi nazaridan kichik biznes samaradorligini tahlil etish va baholash uchun iqtisodiy moliyaviy natijalarni baholash lozim. Shu munosabat bilan bir qator moliyaviy va iqtisodiy samaradorlikni anglatuvchi ko'rsatkichlar bor. Ammo ularni kompleks ravishda olish lozim. Bunda muallif asosiy baholash obyekti sifatida menejer mulkdor va kreditorlarning o'zi belgilanadi. Ularning samaradorligini baholashda o'z fiklari va munosabatlarini bildirib, kichik korxona faoliyatini qanchalik rentabelligi to'g'risida fikr-mulohazalar bildiradilar.

Bundan tashqari, ularning pozitsiyalarida berilgan nasbatdagi mezonlarga katta ahamiyat beriladi, yangi investorlar, asosiy kapital, likvidlik, kichik korxonaning faoliyati bozordagi boshqarishni moliyaviy xarajatlar to'g'risidagi axborot va boshqalar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash uslubiyatini takomillashtirish nazariy hamda amaliy yondashuvlar asosida olib borildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: statistik tahlil usullari, dinamik tahlil, taqqoslash usuli, hududiy tahlil va shu bilan birga, metodologiya doirasida mahalliy va xorijiy olimlarning nazariy qarashlari hamda ilg'or ilmiy yondashuvlar (sanoat klasterlashuvi, raqamli transformatsiya, barqaror rivojlanish konsepsiyalari) kompleks ravishda qo'llanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Korxona mulqdori samaradorlikni baholashning asosiy kapitalga bo'lgan investitsiyalar nazariyasini egallaydi. Kreditlar uchun korxona samaradorligini baholashda asosiy mezon uning barqaror ishlashini shakllanishidir. Kichik korxona samaradorligini baholashda ushbu mezonlar asosida bajariladigan ko'rsatkichlar tizimini qo'llanish mumkin. Buning uchun kelajak to'rtta yo'nalishni e'tiborga olinishi lozim:

Birinchisi, kelajak istiqbolidagi xodimlarning bilim darajasi olinadi, uning samaradorligining ta'siri xisoblanadi. Chunki kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini boshqarishda yuqori malakaga ega, bilimdon xodimlarning o'rni muhimdir. Ayniqsa, korxonaning rivojlanishida ularni to'g'ri va samarali qaror qabul qilishi, ya'ni hozirgi texnologiyalarning tezda rivojlanishi va o'zgarishi sharoitida ularning bilimini oshirish strategik masala hisoblanadi;

ikkinchisi, kelajak istoqbolda ichki biznes jarayonlari ko'rib chiqiladi. Bunda to'g'ri kommunikativlar zanjiri va personalni boshqarish muammolari o'rganiladi;

uchinchisi, kelajak istoqbolda mijozlar bilan ishlash jihatlari ko'rildi, ya'ni mijozlarning talablari qanchalik muhimligi. Agarda xizmat ko'rsatish yoki sifati past mahsulotlar ishlab chiqilsa, mijoz boshqa tomonga o'tib ketishi mumkin.

to‘rtinchisi, kelajak istiqbolda an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlarni hisobga olgan holda, ya’ni moliyaviy oqimni hisobga olish zarur. Bu esa kichik biznes korxonalarining foydani oshirishga olib keladi. Umuman olganda kichik biznes subyektlari faoliyatining samaradorligini baholashda ikkta yondashuvni, ya’ni uslubiyat nuqtayi nazardan qarab chiqiladi. Bular: salohiyat va xarajat yondashuvlari.

Salohiyatlari yondashuv samaradorligini baholashda istiqboldagi holatni bilish uchun qo‘laniladi. Bundan tashqari, ushbu yondashuv orqali investitsiyalarni jalg etish imkoniyatlari o‘rganiladi, ularning samaradorligini baholash amalga oshiriladi.

Kichik korxonalarini faoliyati mavjud holatining samaradorligini baholashda xarajatli yondashuvni amalga oshirish mumkin. Xarajatli yondashuv resurslaridan foydalanishni tavsiflab, uni xarajatlarga nisbatan o‘rganib, haqiqiy samaradorlikni oshirishni baholaydi.

Kichik biznes subyektlari faoliyat samaradorligini baholashda xarajatli yondashuv barcha sarflangan resurslarning samaradorligini oshiradi. Chunki ular bir-biriga bog‘liq jarayon. Xarajatli yondashuv kichik korxonalarda samaradorlikni baholashda son jihatdan samaradorlik tendensiyalarini aniqlashga imkon yaratadi (energo sig‘imi, ish haqi sig‘imi, material sig‘imi, fon sig‘imi va boshqalar). Ammo bunday yondashuv kichik korxona iqtisodiy samaradorligining sifat jihatini tavsiflab bera va daromadni ko‘rsata olmaydi. Shuning uchun kichik korxonalarning samaradorligini baholashda iqtisodiy yondashuv maqsadga muvofiq hisoblanadi. Iqtisodiy yondashuvni asosiy mohiyati u orqali sifat ko‘rsatkichlarini ham tahlil qilish mumkin. Bunday kichik korxonalar samaradorligini baholashda daromad rentabellik ko‘rsatkichlari muhim hisoblanadi. Masalan, sof daromadni hisoblashda korxona rentabelligi asosiy o‘rinni egallaydi va shu bilan birga, tashqi aylanma avtivlar rentabelligi, aylanma rentabelligi, umumiy kapital rentabelligi, o‘z kapitali rentabelligi, ishlab chiqarish fondlari rentabelligi, soliq rentabelligi va boshqalar.

Kichik korxonalar faoliyatining samaradorligini baholashda iqtisodiy yondashuv foydalangan resurslar samaradorligining tendensiyalarini ochib beradi. Bundan tashqari, sifat o‘zgarishlarga miqdor tendensiyalari orqali uning samaradorlikka ta’sir omillari aniqlanadi. Kichik korxonalar faoliyati samaradorligini baholashda aktivlar tuzilishining shakllantirishini tavsiflaydi. Iqtisodiy yondashuv ko‘rsatkichlar tizimi bilan birga moliyaviy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishini taklif qiladi va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish yo‘llarini belgilaydi. Taklif etilgan yondashuvlar kichik biznes subyektlari samaradorligini baholashda o‘tkazilgan tahlilar asosida massalalarni kompleks ravishda amalga oshiradi, samaradorlikni baholashni sifatli tashkil etish har bir ko‘rsatkichni o‘rganish va tahlil o‘tkazish ushbu uslubni asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. Bunda boshqaruv hisobi va operativ hisob shakllaridan keng foydalaniladi. Bunday baholash tizimini yaratish, birinchi navbatda? kichik biznes subyektlarini moliyaviy barqaroligini ta’minlaydi, aktivlarni samarali boshqarish yo‘li bilan korxonalarning to‘lov qobiliyatini mustahkamlaydi, kapitalni shakllantirish manbalarini yaxshilaydi, foydani ko‘paytiradi.

Kichik korxonalar samaradorligini baholashda, uning ko‘rsatkichlarini aniq tasniflash katta ahamiyat kasb etadi. Bunda har bir ko‘rsatkichni, sifati yoki miqdor

ко'rsatkichi bo'ladimi, o'rnini aniq belgilash zarur. Shu sababli ko'rsatkichlar tasniflashini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. (1.-rasm).



**1-rasm. Kichik biznes subyektlarning samadorligini baholovchi ko'rsatkichlar tizimi**

Kichik biznes subyektlari samaradorligini baholashda ko'rsatkichlarning ko'pligidan bir-biri bilan bog'liq bo'lgan turli tadqiqotchilar guruhini qatnashishini talab qiladi. Shu maqsadda ko'p mualliflar samaradorlikning yagona integral ko'rsatmasini shakllantiradi. Shuning uchun muallif tomonidan taklif etilayotgan yagona integral ko'rsatkich ishlab chiqarish rentabelligi bo'lishi mumkin.

Kichik biznes subyektlari faoliyati samaradorligini baholashning realligini ta'minlashda qo'shimcha sifatida bir guruh koeffisiyentlarni o'rganish va ulardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu koeffitsiyent turlicha rentabellikka asoslangan iqtisodiy jarayon va operatsiyalarni hisoblashda foydalaniladi. Ko'rsatkichlarni korrelyatsiya, diskontlash va boshqa matematik usullar bilan amalga oshiriladi. Shu sababli o'z uslubiyatimizning realligini ta'minlash uchun ishimizda bir qator koeffisiyentlar ishlab chiqdik va ulardan foydalanishni taklif etdik.

Amaliyotda katta yoki kichik korxonalar bo'ladimi, ularning faoliyatini baholaydigan muhim ko'rsatkichlardan biri sof foyda hisoblanadi. Sof foyda ko'rsatkichi esa boshqa sifat va miqdor ko'rsatkichlar bilan birgalikda harakat qiladi. Masalan, daromad rentabelligi, sotish rentabelligi, mahsulot rentabelligi, aktivlarning rentabelligi, tannarx va boshqalar. Ularning qanchalik sof foydaga ta'sirini koeffisiyentlar asosida aniqlanadi. Yalpi foydani hisoblaydigan bo'lsak, bunda sof sotishdan ( $S_s$ ) sotilgan mahsulotni tannarxga ( $T_s$ ) nisbatli olinadi:

$$F_{ya} = S_s - T_s \quad (1)$$

Yalpi foyda koeffisiyenti esa qo'yidagi formulada hisoblanadi:

$$K_{yaf} = \frac{S_s - T_s}{S_s} \quad (2)$$

bunda,  $K_{yaf}$  – yangi foyda koeffisiyenti,  $S_s$  – sof sotuv,  $T_s$  – sotilgan tannarxi.

Sotilgan mahsulot yoki chetga chiqarilgan mahsulotlar rentabelligi ko'rsatkichi quyidagi koeffitsiyentlardan iborat:

- sotish foydaliligi koeffitsiyenti;
- sotish rentabelligi koeffitsiyenti.

Sotish foydaliligi koeffitsiyenti kichik biznes korxonalar faoliyatini rentabellik darajasini ko'rsatadi. Bu koeffitsiyent foydani chetga chiqarilgan mahsulot ishlab chiqarish nisbati orqali hisoblanadi:

$$R_s = f - 15 \quad (3)$$

Bunda uchta ko'rsatkich qo'laniladi:

- yalpi foyda;
- sof foyda;
- operatsion foyda va ular quyidagi nisbatlar bilan hisoblanishi mumkin:  
A)  $Y_f / S_s$ ; B)  $S_f / S_s$ ; V)  $O_f / S_s$ .

Sotish foydaliligi koeffitsiyenti yalpi va sof foydadaning har bir sotishdagi pul birligidagi ulush tavsiflaydi. Ushbu koeffitsiyent yalpi foyda koeffitsiyenti deb belgilanadi. Chunki bu koeffitsiyentning oshishi tannarxni ko'payishi yoki kamayishga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu ko'rsatkichni oldingi davr bilan taqqoslaganda baholar dinamikasini e'tiborga olish zarur. Chunki baholar taqqoslanganda koeffitsiyent o'zgarishi ham mumkin. Operatsion xarajatlar foizda hisoblanib, operatsion xarajatlar miqdorini va har bir sotish summasiga to'g'ri keladigan pul birligini ko'rsatadi. Sotuv rentabelligi koeffitsiyenti quyidagicha hisoblanadi:

$$K_{sr} = S_{mt} / S_s \quad (4)$$

bunda,  $K_{sr}$  – sotuv rentabelligi koeffitsiyenti,  $S_{mt}$  – sotilgan mahsulot tannarxi,  $S_s$  – sof sotuv.

Sotuv rentabelligi koeffitsiyenti ishlab chiqarish xarajatlarini sotilgan mahsulot qiymati bilan taqqoslashga imkoniyat yaratadi va har bir sotilgan mahsulotga qancha pul biriktirish, shuningdek, har bir sotilgan mahsulotga tannarxi ulushi yoki tannarxda pul birligi to'g'ri keladi. Bu koeffitsiyentni ko'tarilish tannarxi pasayishi va sotish rentabelligini oshishiga olib keladi. Kichik biznes subyektlari aktivlari uning faoliyati barqarorligini ta'minlaydi. Demak, aktivlar rentabelligini oshirib borish korxonalar oldida turgan muhim vazifadir. Shu sababli aktivlar rentabelligi koeffitsiyentini hisoblash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu masalani ikki koeffitsiyent asosida hal qilish mumkin:

- 1) aktivlar rentabelligi koeffitsiyenti;
- 2) asosiy real kapital koeffitsiyenti.

Aktivlar rentabelligi koeffitsiyentini aniqlash uchun ( $K_{ar}$ ) sof foydani ( $S_f$ ) aktivlarga (A) nisbati olinadi. U quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$K_{ar} = S_f : A \quad (5)$$

Amaliyotda bu koeffinsiyent kichik korxonalarining raqobatbardoshligi darajasi va uning o'rtachaga tarmoq ko'rsatkichlari bilan taqqoslash uchun foydalaniladi. Odatda, bu ko'rsatkich 5-10 foiz oralig'ida bo'lishi lozim. Ushbu ko'rsatkich qo'yidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{ar} = S_f * A_a \quad (6)$$

bunda,  $K_{ar}$  – aktivlar rentabelligi koeffitsiyenti,  $S_f$  – sotish foydasi,  $A_a$  – aktivlar aylanmasi.

Ushbu koeffitsiyentni quyidagi formula asosida ham hisoblash mumkin:

$$K_{ar} = \frac{S_f}{SS} \times \frac{SS}{Aq} \quad (7)$$

bunda,  $S_f$  – sof foyda  $S_s$  – sof sotuv hajmi,  $A_q$  – aktivlar qiymati.

Eng asosiysi kapital rentabelligini hisoblash uchun qo‘yidagi shakldan foydalanish mumkin:

$$K_{rk} = \frac{S_f}{Aq} \quad (8)$$

bunda,  $K_{rk}$  – real asosiy kapital rentabelligi koeffitsiyenti,  $S_f$  – sof foyda,  $K_a$  – asosiy kapital.

Ushbu koeffitsiyent kichik biznes subyektlarida bo‘lgan aylanma va noaylanma mablag‘larni rentabellik darajasini tavsiflaydi. Bundan tashqari, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida shaxsiy kapital mavjud. Kichik korxona egalari tavakkal asosida, o‘z mablag‘lariga ishonib tadbirkorlik faoliyatini boshlaydilar, so‘ngra boshqa mablag‘lardan foydalanadilar. Shu sababli shaxsiy kapitaldan foydalanish darajasi qanday natijalarga olib kelishi mumkinligini shaxsiy kapital rentabelligi orqali amalga oshiradilar. Buni quyidagi formula ifodalaydi:

$$K_{shk} = S_f : K_{sh} \quad (9)$$

bunda,  $K_{shk}$  – shaxsiy kapital rentabelligi,  $S_f$  – sof foyda,  $K_{sh}$  – shaxsiy kapital.

Shaxsiy kapital kichik korxonani yil davomida o‘z faoliyatida har bir ishlab chiqargan mahsulotlardan qancha pul birligi olinganligini taqsimlaydi va uni barcha aktivlar bilan taqqoslaydi. Demak, shaxsiy kapital samaradorligi korxona aktivlarini ko‘payishiga olib keladi.

Kichik biznes subyektlari faoliyatida shaxsiy kapital, aktivlardan tashqari boshqa turdagи investitsiyalardan foydalaniladi. Bu esa ularning rentabelligini oshirib borishini taqazo etadi. Buni qo‘yidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$K_{ri} = F_s + \frac{Tf}{Ksh} \quad (10)$$

bunda,  $K_{ri}$  – investitsiya rentabelligini koeffitsiyenti,  $F_s$  – soliqqa tortishiga bo‘lgan fond,  $T_f$  – to‘langan fondlar,  $K_{sh}$  – shaxsiy kapital.

Ushbu koeffitsiyent kichik korxonaga kiritilgan barcha investitsiyalar samaradorligini anglatadi, bu esa korxonaga barcha kiritilgan investitsiyalardan har bir pul birligiga to‘g‘ri keladigan so‘mni aniqlaydi.

Bulardan tashqari, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini baholaydigan boshqa koeffitsiyentlar ham mavjud. Ularga aksiyadorlik daromadi rentabelligi koeffitsiyenti, dividentlarni to‘lash koeffitsiyenti joriy likvidlik koeffitsiyenti, aktivlar aylanmasi koeffitsiyenti, mulkchilik koeffitsiyenti va boshqalar kiradi va ular yuqoridagi koeffitsiyentlar kabi hisoblanadi.

Shunday qilib, aytish mumkinki, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari samaradorligini baholashda bir guruh ko‘rsatkichlar va koeffitsiyentlar yordamida hisoblanadi va amalga oshiriladi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, taklif etilgan uslubiy qo‘srimcha sifatida bu sohadagi mavjud usul va uslubiyatlar qatorida foydalanish mumkin. Uning boshqa uslublari sodda va oddiy hisoblar bilan aniqlanadi. Shu sababli natijalar real bo‘lishini ta’minlaydi. Ushbu uslublarni kichik biznes subyektlarini baholashda foydalanish soha rivojini ta’minalashdagi yangi bir harakat sifatida qaraladi. Uning foydaliligini amaliyotda ko‘rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati mamlakat iqtisodiy rivojlanishining barqaror drayveri sifatida nafaqat moliyaviy natijadorlik, balki ishlab chiqarish samaradorligi, ijtimoiy ta’sir va innovatsion rivojlanish bilan ham iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minalashda muhim o‘rin tutadi. Hozirgi amaliyotda samaradorlikni baholash mezonlari tor doirada shakllangan bo‘lib, asosan moliyaviy ko‘rsatkichlarga tayanganligi sababli kichik biznes faoliyatining kompleks natijalarini to‘liq yoritib bera olmaydi. Shuning uchun samaradorlikni baholash jarayonida ko‘p mezonli yondashuvni qo‘llash, ya’ni iqtisodiy, ijtimoiy va innovatsion ko‘rsatkichlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish muhim ilmiy-uslubiy vazifa sifatida qaralishi lozim. Ushbu tadqiqotda ishlab chiqilgan integral indeks uslubi kichik biznes samaradorligini har tomonlama baholash imkoniyatini yaratadi va amaliyotda qo‘llash uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlili shuni ko‘rsatdiki, samaradorlikni baholashda kompleks yondashuv keng qo‘llanilmoqda va unda moliyaviy natijalar bilan bir qatorda ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsion faollik, yangi ish o‘rnlari yaratish, hududiy rivojlanishga qo‘silgan hissa ham inobatga olinadi. O‘zbekiston sharoitida esa bunday tizimni takomillashtirish zarurati mavjud bo‘lib, ayniqsa hududiy darajada kichik biznesning sanoat ishlab chiqarishiga qo‘sheyotgan hissasini muntazam monitoring qilish va ularni integral baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, davlat statistika tizimida kichik biznes samaradorligini ifodalovchi maxsus indikatorlar ishlab chiqilishi, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish hamda ilmiy-texnologik loyihalarda kichik biznes subyektlari ishtirokini kengaytirish orqali samaradorlik sezilarli darajada oshirilishi mumkin.

Xalqaro tajribadan kelib chiqib, kichik biznes samaradorligini baholashda barqaror rivojlanish mezonlarini, jumladan yashil texnologiyalarni joriy etish va ekologik samaradorlikni ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv kichik biznesning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik jihatdan ham samarali faoliyat yuritishini ta’minlab, ularni uzoq muddatli rivojlanish strategiyalariga integratsiya qilish imkonini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Marshall, A. (1920). Principles of Economics (8th ed.). London: Macmillan.
2. Porter, M.E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press.
3. Rostow, W.W. (1960). The Stages of Economic Growth: A Non-Communist Manifesto. Cambridge: Cambridge University Press.

4. Drucker, P. (1985). Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. New York: Harper & Row.
5. Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum.
6. Abduraxmonov, Q.X.. Sanoatni modernizatsiya qilish jarayonida rivojlanish tendensiyalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №2(38), 2020, 45–52.
7. Gulyamov S.S. i dr. Tadbirkorlik va kichik biznes. O'quv qo'llanma. -T.: TDIU, 1996.
8. Abdullayev, A. J. Iqtisodiyot rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli (Toshkent viloyati misolida). Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 2(00040), 2019, 1-13.
9. Karimov, A. O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni. Iqtisodiyot va ta'lif, 9(3), 2018, 45-52.
10. Ismoilov, M. Rivojlangan davlatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash tajribasi va O'zbekiston uchun saboqlar. Xalqaro iqtisodiyot va menejment jurnali, 11(1), 2019, 34-42.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi", 2020 yil 30 dekabr.
12. Do'stjanov T.D., Salayev S.K. Kichik biznesning katta imkoniyatlari. -Urganch.: Xorazm, 1997.
13. Pardayev, M.G.. Hududiy iqtisodiyotda sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish muammolari. Iqtisodiyot va ta'lif, №6(73), 2019, 12–20.
14. Nurimbetov, R., Kalmuratov, B., Mirzanov, B., Beglenov, N., & Bekbosinov, A. (2024). Development Of Forecasting Indicators Of Industry Development Trends In The Republic Of Karakalpagistan. Library of Progress-Library Science, Information Technology & Computer, 44(3).
15. Nurimbetov, R. I., & Karimov, K. M. (2025). The role of innovation policy in advancing uzbekistan's textile industry: empirical evidence and strategic forecasting. Innovation Science and Technology, 1(5), 115-120.